b) presuppozitsiya farqlari. Har bir til va madaniyatda ma'lum presuppozitsiyalar – oldindan taxmin qilinadigan bilimlar mavjud. Asl matndagi presuppozitsiya maqsad til kitobxoniga notanish bo'lishi mumkin, bu esa pragmatik muammolarni keltirib chiqaradi.

Tahlil va natijalar. Bu gap shaklan savol bo'lsada, pragmatik jihatdan u bilvosita iltimos, ya'ni derazani yopish yoki isitishni yoqish haqida nazarda tutilgan. So'zma-so'z tarjima: "Bu yerda sovuq, shunday emasmi?"–pragmatik jihatdan noto'g'ri bo'lishi mumkin. Pragmatik jihatdan muvofiq tarjima: "Sovuq bo'lyapti, derazani yopib qo'ysak bo'ladimi?" yoki kontekstga qarab, "Sovuq ekan" (implitsit iltimos sifatida). Ushbu misol pragmatik adaptatsiya strategiyasining qo'llanishini namoyish etadi.

Xulosa va takliflar. Ushbu tadqiqot bevosita tarjimada pragmatik muammolarning mohiyatini ochib berdi va ularni hal qilish yo'llarini ilmiy asoslab berdi. Tadqiqot natijalari quyidagi xulosalarga olib keldi:

Birinchidan, bevosita tarjimada pragmatik ekvivalentlikka erishish semantik va grammatik ekvivalentlikdan kam ahamiyatli emas. Tarjima nafaqat tillar orasidagi o'tkazish emas, balki madaniyatlar, kontekstlar va kommunikativ vaziyatlar orasidagi ko'prik hisoblanadi. Pragmatik jihatlar e'tibordan chetda qoldirilganda tarjima kommunikativ jihatdan nomuvofiq, sun'iy yoki tushunarsiz bo'lib qoladi.

Ikkinchidan, bevosita tarjimada pragmatik muammolar tizimli harakterga ega. Ular asosan besh asosiy turga bo'linadi: nutq aktlari noekvivalentligi, presuppozitsiya farqlari, implikaturalarning uzatilishi, xushmuomalalik strategiyalari farqi. Har bir tur o'ziga xos yechimni talab qiladi.

Uchinchidan, pragmatik muammolarni hal qilishda to'rtta asosiy strategiya samarali ekanligi aniqlandi: pragmatik adaptatsiya (shakl o'zgartiriladi, lekin kommunikativ funksiya saqlanadi), eksplikatsiya (yashirin ma'lumot aniq qilinadi), kompensatsiya (bir joyda yo'qolgan pragmatik xususiyat boshqa joyda qaytariladi) va madaniy almashtirish (bir madaniyatga xos element boshqasidagi ekvivalent bilan almashtiriladi).

To'rtinchidan, tarjimonning pragmatik kompetensiyasi – har ikki tilning pragmatik tizimini chuqur bilish, madaniy kontekstni tushunish va kommunikativ vaziyatni to'g'ri baholash qobiliyati bevosita tarjimaning sifatini belgilovchi muhim omil hisoblanadi. Tarjimon nafaqat tillar tizimini, balki madaniyat, kontekst va kommunikativ vaziyatni ham hisobga olishi lozim.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

(1). Shveyser A.D. (1988). Tarjima nazariyasi: status, muammolar, aspektlar. Moskva, "Nauka".

(2). Saidqodirova D.S. Tarjimada kommunikativ-pragmatik aspektning ahamiyati. Xorijiy tillarni o'qitishda innovatsion yondashuvlar nazariyaning amaliyotga tatbiqi mavzusidagi respublika ilmiy-amaliy anjumani: 1358–1361-betlar.

(3). Baker M. In Other Words: A Coursebook on Translation. London, Routledge, 2018., 332 p.

(4). Grice H.P. Logic and Conversation. Syntax and Semantics. Vol. 3, Speech Acts. New York, Academic Press, 1975, 41–58 pegas.

(5). Nida E.A., Taber C.R. The Theory and Practice of Translation. Leiden, Brill, 1982, 218-bet.

(6). Komissarov V.N. (2002). Zamonaviy tarjimashunoslik. Moskva, ETS.

(7). Nida E.A., Taber C.R. (1982). The Theory and Practice of Translation. Leiden, E.J.Brill.

(8). Shveyser A.D. (1988). Tarjima nazariyasi: status, muammolar, aspektlar. Moskva, "Nauka".

(9). Nida E.A., Taber C.R. (1969). The Theory and Practice of Translation. Leiden, E.J.Brill.

(10). Komissarov,V.N. (1990). Tarjima nazariyasi. Moskva, "Visshaya shkola".

(11). Safarov Sh. Pragmalingvistika. Toshkent, O'zbekiston milliy ensiklopediyasi, 2008, 318-bet.

(12). Munday J. Introducing Translation Studies. Theories and Applications. London, Routledge, 2016, 374 p.

Mustofoqulov Farhod Xolmurod o'g'li (Samarqand davlat Chet tillar instituti "Fransuz filologiyasi" kafedrasi o'qituvchisi; E-mail: farhodmustodoqulov@gmail.com)

NORMANDIYA REGIONIDAGI TURIZM OBYEKTI NOMLARINING LINGVOKULTUROLOGIK TAHLILI

Annotatsiya. *Mazkur maqolada Normandiya regionidagi turizm obyektlari nomlarining lingvokulturologik xususiyatlari tahlil qilinadi. Tadqiqot til va madaniyatning o'zaro aloqasini o'rganuvchi lingvokulturologik yondashuv hamda onomastik va toponimik tahlil usullariga tayangan holda olib borildi. Maqolada joy nomlari nafaqat geografik belgi, balki tarixiy xotira, mintaqaviy identitet, madaniy meros va turistik diskursning muhim komponenti sifatida talqin qilinadi. Normandiyadagi turizm obyektlari nomlarida roman, gallo-rim, skandinav va norman madaniy qatlamlar izlari saqlanib qolganligi ko'rsatildi. Shuningdek, bu nomlar hududning lingvistik manzarasi va turistik jozibadorligini shakllantirishda muhim vosita bo'lib xizmat qilishi asoslandi.*

Kalit so'zlar: *lingvokulturologiya, toponimiya, Normandiya, turizm obyektlari nomlari, madaniy meros, normand tili, onomastika.*

Мустофокулов Фарход Холмурод угли (преподаватель кафедры французской филологии Самаркандский государственный институт иностранных языков; E-mail: farhodmustodoqulov@gmail. com)

ЛИНГВОКУЛЬТУРОЛОГИЧЕСКИЙ АНАЛИЗ НАЗВАНИЙ ТУРИСТИЧЕСКИХ ОБЪЕКТОВ РЕГИОНА НОРМАНДИЯ

Аннотация. *В статье анализируются лингвокультурологические особенности названий туристических объектов региона Нормандия. Исследование опирается на лингвокультурологический подход, изучающий взаимодействие языка и культуры, а также на методы ономастического и топонимического анализа. Названия мест рассматриваются не только как географические обозначения, но и как носители исторической памяти, региональной идентичности, культурного наследия и важные компоненты туристического дискурса. Показано, что в названиях туристических объектов Нормандии сохраняются следы римского, галло-римского, скандинавского и нормандского культурных слоёв. Обосновывается, что данные названия играют значимую роль в формировании лингвистического ландшафта региона и его туристической привлекательности.*

Ключевые слова: *лингвокультурология, топонимия, Нормандия, названия туристических объектов, культурное наследие, нормандский язык, ономастика.*

Mustofokulov Farkhod Kholmurod ugli (Teacher of the Department of French Philology Samarkand State Institute of Foreign Languages; E-mail: farhodmustodoqulov@gmail.com)

A LINGUOCULTUROLOGICAL ANALYSIS OF THE NAMES OF TOURIST SITES IN THE NORMANDY REGION

Annotation. *This article examines the linguocultural features of the names of tourist sites in the Normandy region. The study is based on a linguoculturological approach to the relationship between language and culture, as well as on onomastic and toponymic analysis. Place names are interpreted not only as geographical labels but also as carriers of historical memory, regional identity, cultural heritage, and important components of tourism discourse. The paper shows that the names of tourist sites in Normandy preserve traces of Roman, Gallo-Roman, Scandinavian, and Norman cultural layers. It is argued that these names play a significant role in shaping the linguistic landscape and tourist attractiveness of the region.*

Keywords: *linguoculturology, toponymy, Normandy, tourist site names, cultural heritage, Norman language, onomastics.*

Kirish. Zamonaviy tilshunoslikda tilni inson, tafakkur va madaniyat bilan bog'liq holda o'rganish tendensiyasi kuchayib bormoqda. Shu asosda shakllangan lingvokulturologiya til birliklarida milliy madaniyat, qadriyat, tarixiy xotira va jamoaviy tafakkur qanday aks etishini o'rganadi [1;356-b.], [2;102–103-b.]. Bu fan doirasida onomastik birliklar, ayniqsa, toponimlar, alohida ahamiyat kasb etadi, chunki joy nomlari hududning tarixiy taraqqiyoti, etnik qatlamlari, ijtimoiy tajribasi va madaniy xotirasini o'zida mujassamlashtiradi [3;19–20-b.].

Bugungi kunda turizm ham til va madaniyatning o'zaro aloqasini ko'rsatadigan muhim sohalardan biriga aylangan. Turistik makonning jozibadorligi, ko'pincha, uning nomlari, ular bilan bog'liq tarixiy assotsiatsiyalar, afsonalar, mahalliy talaffuz va mintaqaviy identitet orqali shakllanadi. Shu bois turizm obyektlari nomlarini lingvokulturologik jihatdan tahlil qilish nafaqat nazariy, balki amaliy jihatdan ham muhimdir.

Normandiya bu borada alohida e'tiborga loyiq hudud hisoblanadi. Mintaqaning lingvistik va madaniy qiyofasi rim, gallo-rim, frank, skandinav va norman tarixiy qatlamlari ta'sirida shakllangan. Normand tili va uning mahalliy ko'rinishlari esa hududning o'ziga xos madaniy belgilaridan biri sifatida saqlanib kelmoqda [4;1–2-b.]. Normand tilining UNESKO tomonidan jiddiy xavf ostidagi tillar qatorida qayd etilishi ham bu madaniy-lisoniy qatlamning dolzarbligini ko'rsatadi [4;1–2-b.].

Mazkur maqolaning maqsadi Normandiya regionidagi turizm obyektlari nomlarining lingvokulturologik xususiyatlarini aniqlash, ularning tarixiy-madaniy qatlamlarini tahlil qilish hamda turizm diskursida tutgan o'rnini ko'rsatishdan iborat.

Tadqiqotda qo'yolgan asosiy savollar quyidagilardan iborat:

•Normandiya turizm obyektlari nomlarida qanday tarixiy va madaniy qatlamlar aks etgan?

•Bu nomlar hududiy identitet va madaniy xotirani qanday ifodalaydi?

•Turizm kommunikatsiyasida joy nomlari qanday lingvokulturologik funksiyalarni bajaradi?

Mavzuga oid adabiyotlarning tahlili. Lingvokulturologiya XX asr oxirida mustaqil ilmiy yo'nalish sifatida shakllangan bo'lsa-da, uning nazariy ildizlari V.fon Gumboldt, A.Potebnya, E.Sepir, B.Uorf va boshqa olimlar qarashlariga borib taqaladi. Zamonaviy manbalarda bu soha til va madaniyatning o'zaro

munosabatini, milliy dunyoqarashning til birliklarida namoyon bo‘lishini o‘rganuvchi fan sifatida tavsiflanadi [1;356-b.], [2;102–103-b.]. Maslova maktabi bu yo‘nalishda alohida o‘rin tutib, tilni madaniy fenomen, konseptlarni esa milliy tafakkurning lingvistik ifodasi sifatida talqin qiladi [2;103-b.].

Onomastika va toponimiya bo‘yicha tadqiqotlarda joy nomlarining tarixiy va madaniy yuklama tashuvchi birlik ekani qayta-qayta ta’kidlanadi. Joy nomlarini nomoddiy madaniy merosning qimmatli tarkibiy qismi deb baholab, ular jamoalarning ko‘chishi, joylashuvi, urushlari, diniy qarashlari va kundalik hayoti haqidagi xotirani saqlashini ko‘rsatadi [3;19–24-b.]. Shu bilan birga, joy nomlarining merosiy qiy-mati nafaqat ularning qadimiyligida, balki mahalliy jamoa ongidagi ahamiyatida ham namoyon bo‘lishi aytiladi [5; 25–26-b.].

Normandiya toponimiyasi bo‘yicha tadqiqotlar esa mintaqaning til tarixini va fonetik xususiyatlarini yoritishda muhim manba hisoblanadi. Lepelley Normandiya toponimiyasining asosiy fonetik belgilaridan biri sifatida shimol va janub zonalari o‘rtasidagi farqni ko‘rsatadi hamda bu holatni romanlashuv tarixi va keyingi germannik bosim bilan bog‘laydi [6;177–181-b.]. U Normandiyaning ayrim hududlarida qadimgi lotin velar undoshlarining arxaik ko‘rinishda saqlanib qolganini ta’kidlaydi [6;181–182-b.].

Norman parrlari va normand tili bo‘yicha materiallarda bu tilning lotin asosli bo‘lishi, keyinchalik sakson va viking unsurlari bilan boyishi, shuningdek, bugungi kunda ham mintaqaviy identitetning muhim belgisi ekani ko‘rsatiladi [4;2-b.]. Bu holat turizm obyektlari nomlarini tahlil etishda normand til qatlami va mahalliy talaffuz an’analarini ham hisobga olish zarurligini bildiradi.

Shuningdek, normand toponimik tadqiqotlarning keng ko‘lami haqidagi bibliografik sharhlar Normandiya bo‘yicha ilmiy izlanishlarning sermahsul ekanini ko‘rsatadi. Ayniqsa, *Fr. de Beaurepaire* ishlari normand toponimiyasining bazaviy manbalaridan biri sifatida qayd etiladi [7;73-b.].

Tadqiqot metodologiyasi. Mazkur maqolada tavsifiy, lingvokulturologik, onomastik va interpretativ tahlil metodlaridan foydalanildi. Tadqiqot manbalari sifatida lingvokulturologiya bo‘yicha nazariy asarlar, joy nomlarining madaniy meros sifatidagi qiymatiga doir tadqiqotlar, Normandiya toponimiyasiga bag‘ishlangan ishlar, shuningdek, normand til merosi haqidagi materiallar tanlab olindi [1;356-b.], [3;19–24-b.], [4;1–2-b.], [6;177–182-b.].

Tahlil uch bosqichda olib borildi. Birinchi bosqichda lingvokulturologiya va toponimiya bo‘yicha nazariy qarashlar umumlashtirildi. Ikkinchi bosqichda Normandiyaga xos turizm obyektlari nomlari tarixiy-madaniy qatlamlar nuqtayi nazaridan sharhlandi. Uchinchi bosqichda mazkur nomlarning turistik diskursdagi funksiyalari, ya’ni, identitet yaratish, madaniy mediatsiya va hududning ramziy obrazini shakllantirishdagi roli tahlil qilindi.

Tadqiqot obyekti sifatida Normandiyadagi tarixiy, diniy, qirg‘oqbo‘yi va madaniy turizm bilan bog‘liq nomlar nazariy jihatdan ko‘rib chiqildi. Tadqiqot predmeti esa ushbu nomlarda namoyon bo‘ladigan lingvomadaniy ma’no, tarixiy qatlam va ramziy yuklamadan iborat.

Tahlil va natijalar. Tahlil natijalari Normandiya regionidagi turizm obyektlari nomlari kuchli lingvokulturologik potensialga ega ekanini ko‘rsatdi. Avvalo, bu nomlar mintaqaning ko‘p qatlamli tarixiy rivojlanishini aks ettiradi. Normandiya toponimiyasi romanlashuv, gallo-rim taraqqiyoti, keyingi skandinav ta’siri va norman tarixiy shakllanishi natijasida yuzaga kelgan murakkab tizimdir [6;177–182-b.]. Shu sababli turizm obyektlari nomlari oddiy nominativ birlik emas, balki tarixiy xotira “kodi” sifatida talqin qilinadi.

Birinchi muhim jihat – tarixiy qatlamlilik. Normandiyadagi ko‘plab nomlarda qadimgi lotin, gallo-rim yoki germano-skandinav izlarining saqlanib qolganini kuzatish mumkin. Lepelley ta’kidlaganidek, mintaqaning ayrim hududlarida lotin tilidan o‘tgan fonetik xususiyatlarning arxaik ko‘rinishi saqlangan bo‘lib, bu hodisa toponimlarda, ayniqsa, ravshan ko‘rinadi [6;181–182-b.]. Demak, turizm obyekti nomi, ko‘pincha, o‘sha hududning tarixiy-lisoniy stratigrafiyasini o‘zida jamlagan bo‘ladi.

Ikkinchi jihat – mintaqaviy identitetning ifodalanishi. Normand tili va uning mahalliy ko‘rinishlari hududning o‘ziga xos madaniy belgilaridan biri sifatida yashab kelmoqda [4;2-b.]. Joy nomlarida normand talaffuzi, dialektal variantlar yoki mahalliy etimologik unsurlar uchrashi ularning faqat administrativ nom emas, balki “mahalliylik”ni bildiruvchi belgi ekanini ko‘rsatadi. Macha ta’kidlaganidek, joy nomlarining qadri ko‘pincha ularning jamoa uchun identifikatsion ahamiyatida namoyon bo‘ladi [5;25–26-b.]. Shu nuqtayi nazardan qaralganda, Normandiyadagi turizm obyektlari nomlari hududning brend belgisi bilan birga mahalliy aholi o‘zligini ifodalovchi semantik birlik sifatida ham xizmat qiladi.

Uchinchi jihat – madaniy xotira va merosni saqlash. Zamonaviy tadqiqotlarda joy nomlari nomoddiy madaniy meros sifatida baholanadi, chunki ular tarixiy voqealar, migratsiya, urushlar, diniy an’analar va kundalik turmush izlarini saqlaydi [3;19–20-b.]. Normandiya kabi tarixiy jihatdan zich qatlamlashgan hududda bu holat yanada yaqqol namoyon bo‘ladi. Turizm obyektlari nomlari orqali sayyoh nafaqat manzilni

taniydi, balki mintaqaning tarixiy-madaniy "hikoyasi" bilan ham tanishadi. Demak, nom turizm matnida informativ birlikdan ko'ra kengroq, ya'ni interpretativ va ramziy vazifani bajaradi.

To'rtinchi jihat – turizm diskursidagi reklama va mediatsiya funksiyasi. Turizm kommunikatsiyasida obyekt nomi, ko'pincha, jozibadorlik, tarixiylik va autentiklik taassurotini hosil qiladi. Ayniqsa, qadimiy yoki mahalliy tusdagi nomlar sayyoh uchun "asl", "betakror", "merosiy" makon tasavvurini yaratadi. Bu esa turizm diskursida nomning marketing funksiyasini kuchaytiradi. Biroq nomlar faqat reklama uchun xizmat qilmaydi. Ular madaniy mediatsiya vositasi bo'lib, mahalliy tarix va tashqi auditoriya o'rtasida ko'prik vazifasini ham bajaradi.

Beshinchi jihat – talaffuz va dialektal shakllarning ahamiyati. Onomastik tadqiqotlarda joy nomlarining mahalliy talaffuzi ularning merosiy qiymatini oshiruvchi omillardan biri sifatida ko'riladi [5;26-b.]. Normand parrlari bo'yicha materiallarda ham leksik va fonetik farqlar juda kichik geografik masofalarda ham uchrashi aytiladi [4;2-b.]. Shunday ekan, Normandiya turizm obyektlari nomlarini lingvokulturologik tahlil qilishda faqat yozma shakl emas, balki talaffuz, dialektal rang va mahalliy og'zaki an'anani ham hisobga olish zarur.

Umuman olganda, tahlil shuni ko'rsatadiki, Normandiya turizm obyektlari nomlari quyidagi lingvokulturologik funksiyalarni bajaradi:

a) tarixiy qatlamlarni saqlash;

b) mintaqaviy identitetni ifodalash;

d) madaniy xotirani uzatish;

e) turistik jozibadorlik va autentiklik obrazini yaratish;

f) mahalliy va tashqi auditoriya o'rtasida madaniy vositachilik qilish.

Xulosa va takliflar. Mazkur tadqiqot Normandiya regionidagi turizm obyektlari nomlari lingvokulturologik jihatdan juda boy va ko'p qatlamli hodisa ekanini ko'rsatdi. Bu nomlar hududning tarixiy taraqqiyoti, roman va skandinav ta'sirlari, normand til merosi, mahalliy talaffuz an'analari hamda jamoaviy xotirasini aks ettiradi. Shu sababli ular oddiy geografik ko'rsatkich sifatida emas, balki madaniy-kodlangan birlik sifatida talqin qilinishi zarur.

Tahlillar asosida aytish mumkinki, Normandiyadagi turizm obyektlari nomlari nafaqat hududni belgilash vazifasini bajaradi, balki mintaqaviy identitetni mustahkamlash, tarixiy xotirani saqlash va turizm diskursida autentiklik obrazini yaratishda ham muhim rol o'ynaydi. Joy nomlarining aynan shunday ko'p funksiyali tabiati ularni lingvokulturologik tadqiqotlarning dolzarb obyektiga aylantiradi.

Kelgusida ushbu yo'nalishda quyidagi masalalarni chuqurroq o'rganish maqsadga muvofiq:

•birinchidan, Normandiya turizm obyektlari nomlarining fransuzcha va normandcha variantlarini qiyosiy tahlil qilish;

•ikkinchidan, turizm saytlari va gid matnlarida joy nomlarining qanday talqin qilinishini diskursiv jihatdan o'rganish;

•uchinchidan, joy nomlarining turistik brending va hududiy marketingdagi rolini alohida tadqiq etish.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

(1). Mirzababayeva K.U. Linguoculturology as an independent discipline of linguistics. Web of Scientist: International Scientific Research Journal, 2021, vol. 2, Issue 5, p. 356–360.

(2). Abdullayeva M.M. qizi. Linguoculturology and its study in world linguistics. Volume 3, Issue 3, 2025, p. 100–104.

(3). Mácha P. Wherein lies the heritage value of place names? Onoma, 2023, vol. 58, p. 19–35.

(4). La sauvegarde des Parlers normands. Région Normandie materiallari.

(5). Jordan P. va boshq. Geographical names as a part of the cultural heritage; place-name standardisation and preservation masalalari bo'yicha materiallar.

(6). Lepelley R. Toponymie de la Normandie et romanisation du nord-ouest de l'ancienne Gaule. P. 177–183.

(7). Lepelley R. L'onomastique française: bibliographie des travaux publiés de 1960 à 1985 haqida sharh. Annales de Normandie, 1990, p. 73–74.

(8). Maslova V.A. Лингвокультурология. Москва, "Академия", 2001.

(9). Peeters B. On linguoculturology and cultural linguistics. Vestnik NSU. Series: Linguistics and Intercultural Communication. 2019, vol. 17, № 4, p. 6–11.

(10). UNGEGN Information Bulletin № 48: Geographical names as cultural heritage. United Nations, 2015.

(11). Adigard des Gautries J. Les études de toponymie: principes et méthodes d'ordre general. Annales de Normandie.

(12). Mulon M. L'onomastique française: bibliographie des travaux publiés de 1960 à 1985, Paris, Archives Nationales, 1987.